


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

4/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

4/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 4, aprel

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To'liq Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Ochilov Alisher To'lis o'g'li, tarix fanlari doktori, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Salimov S.S.	2009-yil Parlament saylovlarining o'ziga xos xususiyatlari	160
Nosirov Sh.O'.	Buxoro amirligidagi 1917-yil aprel voqealarining Turkiston matbuotida yoritilishi	165
Murodov H.S.	O'zbekistonda xalqaro turizmning yo'lga qo'yilishi (1993-1997-yillar misolida)	169
Kenjayev S.N.	Amir Temurning tashqi siyosati: Tibet xalqlari va buddaviylik	174
Jamolova D.K.	Buxoroda gidlik va turizm: shaharning tarixiy merosiga nazar (Somoniyar maqbarasi misolida)	178
Boltayev B.B.	Yurtimizdagi ilk muzeylarning shakllanishi va bosib o'tgan taraqqiyot yo'li	182
Baxtiyorov B.B.	Afshona qishlog'i tarixiga bir nazar	188
Orunbayev A.	Ittihad va Taraqqiy harakati davridagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatlarning tahlili	192
Xurramov A.R.	Poykent arxeologik yodgorligini muzeylashtirishning tarixiy asoslari	198
Murodova D.Sh., Rajabova M.U.	Buxorodagi so'nggi arxeologik tadqiqotlar	202
Савриев Ж.Ф.	Навоий вилоятининг тарихий объектларини асраб қолишда замонавий шаҳарсозлик муаммолари	206
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
To'ychiyeva R.A.	"Strategik avtonomiya" zamonaviy Hindiston tashqi siyosatining bosh tamoyili sifatida	210
Nadjimov F.K.	O'zbekistonda siyosiy yangilanishlar davrida tashqi hamkorlik masalalari	214
Uzoqov I.Sh.	Siyosiy madaniyat: tushuncha, mazmun-mohiyat	218
Surobova R.Z.	Tarix falsafasining asosiy tamoyillari va ularning axloqiy tarbiyaga ta'siri	222
TIBBIYOT *** MEDICINE *** МЕДИЦИНА		
Zaidov M.H.	Modern approaches to correction of facial defects: from microsurgery to 3D reconstruction	225

BUXORODAGI SO'NGGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

Murodova Dilrabo Shomurodovna,

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Rajabova Mahliyo Umed qizi,

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya ta'lim yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoroda so'nggi yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, ularning natijalari va ahamiyati xususidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bugungi kunda mamlakat tarixini yanada chuqur o'rganish, milliy merosni asrash va targ'ib qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Tarixiy obidalar va madaniy yodgorliklarni tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Buxoro vohasi kabi qadimiy sivilizatsiya markazlarida keng ko'lamli arxeologik qazishmalar amalga oshirilmoqda. Buxoro tarixini arxeologik tadqiqotlar asosida o'rganish borasidagi xalqaro hamkorlik, qazishmalar davomida qo'lga kiritilgan topilmalar va ularni ta'mirlash jarayonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tadqiqot, tarixiy-madaniy meros, yodgorlik, arxeologik park, xorijiy hamkorlik, ta'mirlash, ashyo, qadimgi, qazishma, terrakotalar, dastur.

ПОСЛЕДНИЕ АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В БУХАРЕ

Аннотация. В данной статье анализируются данные об археологических исследованиях, проведённых в Бухаре в годы независимости, их результатах и значении. Сегодня более глубокое изучение истории страны, сохранение и популяризация национального наследия стали одним из приоритетов государственной политики. Особое внимание уделяется исследованию исторических памятников и памятников культуры. В частности, в таких древних центрах цивилизации, как Бухарский оазис, проводятся масштабные археологические раскопки. Освещено международное сотрудничество в изучении истории Бухары на основе археологических исследований, находки, полученные в ходе раскопок, и процессы их реставрации.

Ключевые слова: исследование, историко-культурное наследие, памятник, археологический парк, зарубежное сотрудничество, реставрация, артефакт, древний, раскопки, терракота, программа.

RECENT ARCHAEOLOGICAL RESEARCH IN BUKHARA

Abstract. This article analyzes information about archaeological research conducted in Bukhara in recent years, its results, and significance. Today, a deeper study of the country's history, preservation, and promotion of national heritage has become one of the priorities of state policy. Special attention is being paid to the study of historical monuments and cultural heritage sites. In particular, large-scale archaeological excavations are being carried out in ancient centers of civilization such as the Bukhara oasis. The article highlights international cooperation in studying the history of Bukhara based on archaeological research, the findings obtained during excavations, and the processes of their restoration.

Keywords: research, historical and cultural heritage, monument, archaeological park, foreign cooperation, restoration, artifact, ancient, excavation, terracotta, program.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi PF-16-son farmonida madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va ommalashtirish bilan bog'liq faoliyatni yanada takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilab berildi. Jumladan, arxeologiya yodgorliklarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va muzeylashtirish, 75 ta arxeologiya yodgorliklarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, 3 ta arxeologiya yodgorliklarini konservatsiya qilish va muzeylashtirish choralari ko'rish, respublikadagi 57 ta madaniy meros obyektlarida restavratsiya va ta'mirlash-tiklash yuzasidan zarur choralarni amalga oshirish, davlat muzeylaridagi elektron

identifikatsiya qilinadigan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari sonini 600 ming donaga oshirish, davlat muzeylari va madaniy meros obyektlariga tashrif buyuradigan mahalliy va xorijiy sayyohlar sonini 6 mln nafarga yetkazish, muzey rahbar va xodimlaridan 100 nafarining malakasini oshirish kabi joriy yilda bajarilishi mo'ljallangan chora-tadbirlar xaritasi ishlab chiqildi [1;]. Shu jihatdan ilm-fan, madaniyat, davlatchilik qadimdan taraqqiy etgan Buxoro vohasini arxeologik jihatdan tadqiq etish, ilmiy jihatdan dalillangan yangi ma'lumotlarni ommlashtirish borasida so'nggi yillarda hududda qator arxeologik qazishmalar olib borilmoqda.

Metodlari. Mazkur maqolada tarix fanida tadqiqotlar olib borishning tarixiylik tamoyili, obyektivlik va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari. Buxoro - Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan ko'hna va navqiron zamin. U insoniyat tarixi va madaniyatida o'ziga xos o'rin egallagan moziy gavharidir. Buxoroning arxeologik jihatdan o'rganilishi 1913-1915-yillarda boshlanib, V.A.Shishkin, Ya.G'.G'ulomov, A.A.Askarov, A.R.Muhammadjonov, L.I.Rempel, M.G.Masson, M.Turebekov, B.O'roqov, O.B.Obelchenko, G.Dadaboyev, I.Ahrorov, J.Mirzaahmedov, M.Xo'janazarov, Sh.Odilov kabi olimlar tomonidan hududning qadimgi davr tarixi o'rganib kelingan[2; B. 23].

Mustaqillikdan so'ng amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Buxoro va uning atrofida joylashgan ko'plab tarixiy yodgorliklarning yoshi ancha qadimiy ekanligi aniqlandi. Shuningdek, o'rta asrlarda Buxoroda shakllangan hunarmandchilik, savdo va madaniy hayotga oid yangi dalillar topildi. Buxoro tarixini o'rganish xalqaro miqyosda amalga oshirila boshlandi. Buxoro hududida - Avstraliya, AQSH, Germaniya, Italiya, Polsha, Chexiya, Rossiya, Fransiya, Yaponiya kabi davlatlarning arxeolog olimlari bilan hamkorlikda, xalqaro miqyosda, arxeologik tadqiqotlar olib borilmoqda. Mustaqillik yillarida Italiyaning Rim Universiteti olimlari Buxoro hukmdorlarining qarorgohi hisoblangan mashhur Varaxsha shahri yaqinida joylashgan Uchqulox yodgorligida qazishma ishlarini amalga oshirgan. Qazishmalar natijasida, so'nggi antik davrdan ilk o'rta asrlarga o'tish davrida bunyod etilgan va faoliyat ko'rsatgan Uchqulox ko'shkining mudofaa tizimlari, markaziy imoratlarining me'morchilik usullari o'rganildi. Yodgorlikning markaziy imoratlari xonalaridan devoriy suratlarning qoldiqlari topilishi diqqatga sazovordir.

Istiqlol yillarida nihoyatda faollashgan tadqiqotlar ko'lamini va ularning ilmiy samarasi natijasida O'zbekiston arxeologiyasi dunyoviy ahamiyat kasb etdi. Arxeologiya instituti vatanimiz hududida hamkorlikda arxeologik tadqiqotlar olib borish uchun jahonning eng rivojlangan mamlakatlari ilmiy markazlari bilan shartnomalar tuzishga erishdi. Mamlakatimizning tarixiy hududlarida olib borilgan keng miqyosdagi arxeologik tadqiqotlar qadimgi va o'rta asrlarga oid madaniyatlar izlarini o'rganilishiga imkon yaratdi. 2000-yili O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti va Sankt-Peterburg Davlat Ermitaji qo'shma ekspeditsiyasi Poykend yodgorligini statsionar o'rganish doirasida Poykend shahristonida qazish ishlari olib boradi. Qazishmalarda arkning shimoliy qismida eramizning boshlarida paydo bo'lgan va arablar istilosiga qadar davriy qayta qurilgan Zardushtiy ibodatxonasining qoldiqlari topilgan. Ekspeditsiyaning muhim yutuqlaridan biri IX-X asrlarga oid minora poydevori qoldiqlarining topilganligidir. U 42x24-25x8-10 sm o'lchamdagi loy g'ishtdan yotqizilgan, strukturaning tashqi diametri 10,6 m, qolgan balandligi 1,3 m. Minoraning asosi uchta devor halqalaridan iborat. Poykend minorasi O'rta Osiyo me'morchiligining dastlabki namunasidir. 2001-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining Buxoro arxeologik ekspeditsiyasi, Sankt-Peterburg Davlat Ermitaji va Tayvan Respublikasi Tayvan milliy san'at kollejinining professori Joan Stenli-Beyker boshchiligidagi bir guruh tadqiqotchilari Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Poykend yodgorligida ilmiy izlanishlarni olib borganlar. Tadqiqotlar Paykend arksi va I-II shahristonida olib borilgan [3; B. 61-65].

1991-2024-yillarda Poykent hududida muntazam ravishda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlarda nafaqat Rossiya, balki Fransiya ilmiy jamoatchiligi ham faol ishtirok etganlar. Izlanishlar natijasida qo'lga kiritilgan 2200 dan ortiq eksponatlar Poykent muzeyidan o'rin olgan. So'nggi yillarda Poykentdagi qazishmalarda topilgan noyob topilmalar orasida metaldan ishlangan qurollar keng jamoatchilik e'tiborini topdi. Har xil o'lchamdagi xanjarlar, kamon nayzasi uchlari, askarlar sovutidan parchalar, qo'l jangi chog'ida ishlatilgan metal uzuklar eramizdan avvalgi I va eramizning I asriga ta'luqli bo'lib, saklar va massagetlar davriga oid ibodatxona janubida olib borilgan qazish ishlari natijasida topilgan [4; B. 2].

2013-2014-yillarda Rossiya Davlat Ermitaji va O'zbekiston FA Arxeologiya instituti tomonidan Buxoro arxeologik ekspeditsiyasi doirasida Poykend shaharchasi va uning atrofida qazish ishlari davom ettirildi. Tadqiqotlar beshta obyektida olib borilgan: qal'a, qal'a oldidagi maydon, Shahriston I, janubiy atrofi hamda Bad-Asiy hududidagi forslar davridagi nekropol. 2013-2014-yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar paytida "Buxoro xudosi" deb nomlanuvchi terrakota haykalchasi topilgan. Haykalcha matritsada yasalgan bo'lib, baland relyefda ishlangan. Orqa tomoni yassi, silliq, barmoq izi bilan tekislab chiqarilgan. Haykalchada tik turgan ayol tasvirlangan. Yuzi burun va iyak qismi ajralib turgan, suyakli yuz tuzilishiga

ega, katta ko'zli qilib tasvirlangan. Soch turmagi silliq bo'lib, ikki tomonlama to'liqsimon taroqlarda ajratilgan; bosh orqasida aylana shaklida o'ralgan, bu esa halo (nurlanish) elementiga o'xshab ketadi. Qo'llari bukilgan, tirsakdan pastroqda qorin ustiga qo'yilgan; chap qo'lida – dastasiz guldona yoki qadah shaklidagi idish; o'ng qo'lida – tasbeh yoki marvaridli uzuk ko'rinishidagi buyum ifodalangan. Haykalchani o'lchamlari: bo'yi 10,7 sm, eni 4,7 sm (yuz qismi), 3,1 sm (tana qismi); qo'llari tana bilan birga ishlangan. Orqa tomonida sopol shakldagi "nishon" (diametri 3,35 sm, balandligi 0,73 sm) va markazida 0,55 sm diametrli teshik mavjud. Poykentdan bundan tashqari hayvon shaklidagi kichik sopol haykalcha parchalari topilgan bo'lib, bu terrakota haykalchasi uchta oyog'i va ikki qanotli qilib tasvirlangan [5; B. 36].

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Milliy arxeologiya markazi tomonidan o'rta asrlarda O'rta Osiyoda shahar madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi borasidagi jarayonlarni tadqiq qilish, shahar aholisining turar-joylari xususiyati, shahriston topografiyasini o'rganish maqsadida 2020-yilning oktyabr-noyabr oylarida Buxoro Shahristonining janubi-g'arbiy hududida arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Qazish ishlarida markaz xodimlari D.K.Mirzaahmedov, D.Xolov, S.Mirzaahmedov, X.Rahmonov, M.Sultonovlar ishtirok qilishgan. 2018-2023-yillarida Shahriston hududida olib borilgan qazuv ishlarida nafaqat O'zbekiston, balki Fransiya, AQSH qo'shma ekspeditsiyalari hamkorlikda tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Alohida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash direksiyasi, Buxoro viloyati hokimligi madaniy meros departamenti viloyat boshqarmasi tomonidan 2020-2021-yillarda "Ark qo'rg'oni" ning 2,5 gektardan iborat arxeologiya hududida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Hududda joylashgan madaniy meros ob'ektlari konservatsiya qilinib, O'zbekistonda birinchi arxeologik parkni "Ark qo'rg'oni"da tashkil etish ishlari boshlab yuboriladi. Arxeologik parkning loyihasi O'zbekistondagi Markaziy Osiyo xalqaro tadqiqotlar instituti (MISAI) tomonidan tayyorlanib, arxeologiya yo'nalishi bo'yicha xalqaro toifadagi ekspertlar loyiha takliflaridan foydalanilgan. 2023-yilning 22-sentabrida ichki va tashqi sayyohlik tarmog'ini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan "Arxeologik park" ning tantanali ochilish marosimi o'tkazilgan [6;].

2022-yil martdan 2023-yil avgustigacha bo'lgan davrda "Buxoro amirligi qozixonasi mahkamasi tarixi" loyihasi doirasida Buxoro amirligining markaziy qozixonasi joylashgan Buxoroning eski shahar hududidagi Abdullabekov tor ko'chasi, 12-uyda qazish ishlari olib borilgan. Qazuv ishlari davomida 16 ta xona qayd etilgan. Inshootning butun shimoliy qanotiga oid binolarining katta qismi va qisman yuqori gorizont bo'ylab, Qozixona binolarining g'arbiy va janubiy qanotlari ochilgan. Arxeologik tadqiqotlar asosan sharqiy hovli qismining mehmonxona, ayvonning keng sufasi va janubi-g'arbiy hovli bo'linmasi-ichkariga tegishli Qozikalonning shaxsiy oilaviy xonalari aniqlangan. Xonalar, umuman olganda butun shimoliy tashqi devor chizig'i bo'ylab ketma-ket cho'zilgan, derazalari janubiy hovliga ochilib, Buxoro uylarining an'anaviy qishki qurilish tizimiga mansubligi aniqlangan. Shimoliy qanot binolarining katta qismi va qisman yuqori gorizont bo'ylab, Qozixona binolarining g'arbiy va janubiy qanotlari ochilgan. Natijada, etnografik ma'lumotlarga tayangan holda, tarixiy me'moriy majmuaning bir-biridan to'siq chizig'i va ikki tabaqali eshiklar bilan ajratilgan uchta hovli bo'linmasiga bo'inishi aniqlangan [7; B. 100-102]. Qazishmalar natijasida XIV-XVI-asrlarga oid sopol va koshinlardan yasalgan idish parchalari, arxitektura dekor parchasi, XIX-XX-asr boshlariga oid yashil rangda sirlangan idish parchalari, obdasta, sopol qubur, qora, qizil va jigar ranglar bilan angoblangan yirik, kir yuvishga mo'ljallangan sopol tog'ora, metal hunarmandchilik asboblari topib o'rganilgan.

2023-yilda arxeologik tadqiqotlar davom ettirilib, ushbu mavsumning asosiy natijalari sifatida qozixonaning g'arbiy qismida mavjud yer to'lalarning uchta bo'linmasi va unga tushadigan zinapoyani keltirish mumkin. Katta ehtimol bilan aytish mumkinki, yodgorlikning sharqiy qismidagi yerto'lalar ustida ayvonlar bo'lgan. Yer to'lalar pishiq g'ishtdan qurilgan va qisman ohakli qorishma bilan suvalgan. Qozixona hovli bo'linmasining janubiy va g'arbiy ma'muriy qismida manbalarga ko'ra, tergov qilinayotgan mahbuslar saqlangan. Qayd etish lozimki, aksariyat xonalar butun shimoliy tashqi devor chizig'i bo'ylab ketma-ket cho'zilgan, derazalari janubiy hovliga ochilib, Buxoro uylarining an'anaviy qishki qurilish tizimiga mansub. Shu bilan birga, buxoroliklarning yozgi uylarining an'anaviy xususiyati, xonalar fasadlarining shimolga, shimoliy salqin shamollar tomon joylashish bo'lgan va to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlaridan himoya qilishni ham ta'minlagan [8;].

2023 yilda O'zbekiston va Fransiya (Luvr) xalqaro arxeologik ekspeditsiya tomonidan Buxoro vohasining yirik shahar yodgorliklaridan biri Romitan qo'rg'onidagi ikkita obyektga ham arxeologik qazishmalar olib borilgan. Birinchi obyekt Romitan qo'rg'oni bu - markazidagi arkning janub tomonida VI - VII asrlarda faoliyat ko'rsatgan, shaharning yuqori mansabli amaldoriga yoki hukmdor oilasiga tegishli bo'lgan yirik, mahobatli turar-joy majmuasida olib borilgan. Majmuaning ikkita xonasi va bitta koridorning

HISTORY

bir qismi ochib o'rganilgan. Xonalar boy yoki hukmron doiralari oilalariga tegishli bo'lganligi uchun maxsus tayyorlangan tarx asosida bunyod etilganligi aniqlangan. Xonalar devorlarida juda kam miqdorda ganch bilan suvalgan devorga tushirilgan suratlar parchalari ham uchraydi. Ikkinchi ob'yekt esa arkning janub tomonida joylashgan shahriston hududida olib borilib, qazishma maydonining hajmi 10×10 m, chuqurligi 45-60 sm ni tashkil etgan. Qazishma qatlamlari va o'ralardan somoniylar va qoraxoniylar davriga oid sopol buyumlar topilganligi qayd etilgan..

Xulosa. So'nggi yillarda tarixiy-madaniy merosni o'rganish va asrab-avaylash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganligini soha taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan qator tadbirlarda ko'rish mumkin. Buxoro vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida hududdagi ko'hna shaharlarning o'tmishini yorituvchi topilmalar aniqlandi. Bu tadqiqotlar nafaqat ilmiy jamoatchilik, balki turizm va madaniyat sohalari rivoji uchun ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. *Ражабов Қ., Иноятлов С. Бухоро тарихи. – Тошкент: Тафаккур, 2016. – 23 б.*
2. *Ochilov A.I. Buxoro arxeologiyasi. - Buxoro. 2022. –B. 218.*
3. *Иброҳимов И. Пойкентдан металл қуроллар топилди // Бухоронома. -2025. 29 январь. – Б. 2*
4. *Материалы Бухарской археологической экспедиции. Выпуск о раскопках в Пайкенде в 2013-2014. Санкт Петербург. 2016. С. 36.*
5. <https://uza.uz/uz/posts/>
6. *Naimov I. Buxoro amirligi qozixona mahkamasi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XX asr boshlari) Buxoro. 2023. – B. 131.*
7. <https://www.arxeologiya.uz/buxoro-sugdi-arxeologik-ekspiditsiyasi/>
8. <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>